

«Kelishilgan»

Yangi tibbiy texnika qo'mitasi
raisi

D.I.Payziyev

I va EK № 23

2025 y. "25" 09

TIBBIY BUYUMNI TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI BO'YICHA YO'RIQNOMA

Dengiz suvili izotonik eritma PSHIK MINI

Qo'llanilishi

PSHIK MINI, dengiz suvi bilan izotonik eritma, quyidagilarda qo'llaniladi:

- havoning yuqori darajada quruqligi sharoitida burun shilliq qavatining himoya fiziologik xossalarini saqlab qolish uchun uni har kuni namlash vositasi sifatida;
- burun-halqum, burun qo'shimcha bo'shliqlari va burun bo'shlig'ining turli etiologiyali o'tkir va surunkali yallig'lanish kasalliklarida (rinitlar, sinusitlar) bemorning ahvolini yengillashtirish uchun;
- kuz-qish davrida burun va burun-halqumning infeksiyon kasalliklarida;
- burun bo'shlig'idagi mahalliy yallig'lanish jarayonining namoyon bo'lishini kamaytirish va murakkablashgan burun orqali nafas olishda;
- burun shilliq qavatini chang, allergenlar va havoni ifloslantiruvchi boshqa omillardan tozalash uchun;
- jarrohlik aralashuvlaridan keyin burun bo'shlig'ini parvarish qilish, shilliq qavatning fiziologik holatini tiklash uchun;
- Bolalarda adenoidlar gipertrofiyasini davolashda yordamchi vosita sifatida;
- allergik (vazomotor) mavsumiy yoki yil davomida uchraydigan rinitni davolashda yordamchi vosita sifatida.

Tarkibi:

Tozalangan dengiz suvi, inyeksiya uchun suv.

Ta'rifi:

Tiniq rangsiz suyuqlik.

PSHIK MINI tibbiy mahsuloti Fransiya qirg'oqlarining g'arbiy qismida joylashgan qo'riqxonada hududidagi dengiz suvi asosida yaratilgan (Sen-Genole lokalizatsiyasi, Bretan). Bretan qirg'oqlari yaqinidagi dengiz suvi o'z-o'zini tozalashi va kuchli ko'tarilish va qaytish dengiz oqimlari tufayli doimiy ravishda yangilanib turishi tufayli eng toza hisoblanadi.

Xususiyatlari:

- multillovchi epiteliy funksiyasini yaxshilaydi, bu esa burun bo'shlig'i shilliq qavati va qo'shimcha bo'shliqlarning kasallik qo'zg'atuvchi bakteriya va viruslar kirishiga chidamliligini kuchaytiradi;
- burun shilliq qavatini chang, allergenlar va infeksiyalangan burun ajralmasidan tozalashga yordam beradi;
- burun shilliq qavatining qadahsimon hujayralari tomonidan shilliqning suyuqlanishi va chiqarilishiga va uning hosil bo'lishini normallashtirishga yordam beradi, erkin nafas olishni tiklashga ko'maklashadi;
- nafas yo'llarining o'tkazuvchanligi va normal ishlashini tiklashga yordam beradi, burun-halqum va burun o'simta bo'shliqlari kasalliklarida tiklanishni tezlashtiradi;
- burun bitishi va burun bo'shliqlaridagi bosim hissini yo'qotadi;
- burun sekretining rN darajasi ko'rsatkichini normallashtirishga yordam beradi;
- o'z tarkibida konservantlar saqlamaydi;
- steril mahsulot hisoblanadi.


Qo'llash usuli va dozasi:

PSHIK MINI, davolash va profilaktika maqsadlarida, shuningdek burun bo'shlig'ining kundalik gigiyenasi uchun qo'llaniladi:

- 1 yoshgacha bo'lgan bolalarga - har bir burun katagiga 1-2 tomchidan kuniga 1-3 marta;
- 1-6 yoshli bolalarga - har bir burun katagiga 1-2 tomchidan kuniga 1-3 marta;
- 6-12 yoshli bolalarga - har bir burun katagiga kuniga 2-4 marta 2 tomchidan;
- kattalar va 12 yoshdan katta bolalarga - har bir burun katagiga 2-3 tomchidan kuniga 3-6 marta.

Bir marta ishlatiladigan flakon-tomizgich (nebula) ishlatish oson va xavfsiz. Flakon qopqog'ini burab ochiladi va u to'liq ajratib olinadi.

Chaqaloqlarga yotgan holatda yuvish tavsiya etiladi. Bolaning boshini yon tomonga burib, yuqori burun yo'li yuviladi, muolaja boshqa burun yo'li bilan takrorlanadi. Flakonni burun yo'liga chuqur kiritmang.



Bolalar va kattalar boshini yon tomonga egib o'tirgan yoki tik turgan holatda yuviladi. Yuqori burun yo'lini yuvish, funksiyani boshqa burun yo'li bilan takrorlash. Kimyoviy tarkibi va konsentratsiyasi tufayli dengiz suvi bilan izotonik bo'lgan PSHIK MINI eritmasidan foydalanish davomiyligi va takroriyligi bolalar uchun cheklanmagan, mahsulot uzoq muddat qo'llanilganda xavfsiz bo'lib, o'rganib qolishga olib kelmaydi. PSHIK MINI, dengiz suvi bilan izotonik eritma, barcha yoshdagi bolalar, kattalar, homilador ayollar va emizikli davrda qo'llaniladi.

Ehtiyotkorlik choralari:

PSHIK MINI, dengiz suvi bilan izotonik eritma, tibbiy buyumning komponentlariga yuqori sezuvchanligi bo'lgan shaxslarga qo'llash mumkin emas.

PSHIK MINI dengiz suvi bilan izotonik eritma bo'lib, uni homiladorlik va emizikli davrda qo'llash mumkin.

PSHIK MINI dengiz suvi bilan izotonik eritma bo'lib, transport vositalarini boshqarishda va boshqa mexanizmlar bilan ishlashda reaksiya tezligiga ta'sir qilmaydi.

Chaqaloqlarga eritmaning o'rta quloqqa tushish xavfini oldini olish uchun preparatni minimal bosim bilan tomizish kerak.

Sterillik haqida ma'lumot:

Nebula (monodoza) faqat bir marta qo'llash uchun mo'ljallangan. Agar qoplamasi avval ochilgan yoki shikastlangan bo'lsa, ishlatmang, chunki tez bakterial ifloslanish xavfi mavjud.

Saqlash tartibi:

Original o'ramda, 25 °C dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlang.

Ogohlantirish:

PSHIK MINI, dengiz suvi bilan izotonik eritma, bolalar ololmaydigan joyda saqlash kerak.

Yaroqlilik muddati: ishlab chiqarilgan sanadan boshlab 2-yil.

O'ramida ko'rsatilgan sanagacha ishlating.

O'rami:

2 ml (ml) dan polietilenli nebulalarda. 10 tadan nebula karton pachkada.

Ishlab chiqaruvchi:

"Farmak" AJ, Ukraina, 04080, Kiyev shahri, Kirillovskaya ko'chasi, 63

www.farmak.ua

Ishlab chiqaruvchining joylashgan joyi va uning faoliyatini amalga oshirish joyi manzili:

04080, Kiyev shahri, Kirillovskaya ko'chasi, 74

O'zbekiston Respublikasi hududida tibbiy buyumlar sifati bo'yicha e'tirozlarni (takliflarni) qabul qiluvchi tashkilotning nomi va manzili


"Farmak" AJning O'zbekistondagi vakolatxonasi

100170 O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Ziyolilar ko'chasi 12a, 1/2

e-mail: info@farmak.ua

Tel: +998 (71) 235-77-13, +998 (71) 235-67-05

O'ramida ishlatiladigan simvollar:

	Ishlab chiqaruvchi		Haroratning yuqori chegarasi
	Qayta foydalanilmasin		Qo'llash bo'yicha yo'riqnomaga qarang
	Qayta foydalanish va qayta ishlash imkoniyati belgisi (RAR - qog'oz va kartondan; 21 - kartonning boshqa turlari)		Aseptik ishlov berish usuli bilan sterilizatsiya qilingan
	O'rami shikastlanganda ishlatilmasin		gacha ishlatish
	Seriya (partiya) raqami		Ishlab chiqarilgan sana

